

AQSH SOTSILOGIYASI VA CHIKAGO MAKTABI**Mamajonova Zarinabonu Iqboljon qizi**

Alisher Navoiy nomidagin Toshknet davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti,

O'zbek tili ta'limi fakulteti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası,

Sotsiologiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi.

zarinabonumamazonova@gmail.com<https://doi.org/10.5281/zenodo.11236179>

Annotatsiya. Ushbu maqolada AQShda sotsiologiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi, empirik tadqiqotlar va nazariyaning shakllanishi, Chikago maktabining o'rni, ahamiyati va rivojlanishi hamda tanazzuli haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. AQSh, sotsiologiya, empirika, tadqiqot, nazariya, Chikago, Pechak ligasi, iqtisodiyot, urbanizatsiya, sanoatlashuv, immigratsiya.

US SOCIOLOGY AND THE CHICAGO SCHOOL

Abstract. This article discusses the emergence and development of sociology in the United States, empirical research and theory formation, the role, importance and development and decline of the Chicago School.

Key words: USA, sociology, empirics, research, theory, Chicago, Ivy League, economics, urbanization, industrialization, immigration.

СОЦИОЛОГИЯ США И ЧИКАГСКАЯ ШКОЛА

Аннотация. В статье рассматривается возникновение и развитие социологии в США, эмпирические исследования и становление теории, роль, значение, развитие и упадок Чикагской школы.

Ключевые слова: США, социология, эмпирика, исследования, теория, Чикаго, Лига плюща, экономика, урбанизация, индустриализация, иммиграция.

Kirish. Tarixan olib qaralganda, AQSh yuksak darajadagi klassik nazariyotchi olimlarnilarni yetishtirmagan bo'lishiga qaramay, o'sha davrning o'zidayoq AQSh ham o'z nazariy metodlariga ega edi va amerikalik ilk sotsiologlar Yevropa hayoti va taraqqiyoti, ro'y berayotgan hodisalardan xabardor edilar. Emil Durkgeym va Maks Veber singari Yevropaning kuchli nazariyotchilari AQSh sotsiologiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmagan. AQShning birinchi sotsiologiya jurnali hisoblangan "American Journal of Sociology" jurnalining tahririyat kengashida Dyurkgeym bor edi. AQSh sotsiologiyasi Yevropa sotsiologiyasi bilan kamroq nazariy, ko'proq pragmatik va davlat siyosati bilan ish olib borganligi hamda shu sohaga ko'proq

e'tiborini qaratgani bilan ajralib turar edi. Ijtimoiy olamga nisbatan Spenserchi sotsial darvinistik yondashuvni qo'llab-quvvatlaganlar bilan ijtimoiy muammolarning rejalari va yechimlarini shakllantirish uchun sotsiologiyadan foydalanadiganlar o'rtasida boshidan keskinlik bor edi. Bu keskinlik Qo'shma Shtatlarning yangiligi, uning mustamlaka va ommaviy migratsiya (ixtiyoriy va majburiy) manzili sifatidagi noyob tarixi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi yozuvchilar, masalan, irqiy muammolarni tushunish va yaxshilash muhimligini ta'kidladilar. Boshqalar ta'rifiga ko'ra esa aristokratiyaga qarshi bo'lgan xalqda sinfiy chiziqlarning qattiqlashishini va umuman demokratik jamiyat muammolari va va'dalarini tushuntirishga va oldini olishga harakat qilishdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. J.Ritserning ta'kidlashicha, AQShda sotsiologiya paydo bo'lishining aniq sanasini belgilash qiyin - 1858-yil boshida Berlinda ijtimoiy muammolarga bag'ishlangan kurs o'qitilgan; 1854-yilda Ogyust Kontning «sotsiologiya» terminidan Jorj Fitsxyu foydalangan; 1873- yilda Uilyam Grem Samner ijtimoiy fan kursini Yeylda boshlagan. XIX asming 80-yillari davomida "Sotsiologiya" maxsus kurslari paydo bo'la boshlagan. Bu nom bilan atalgan birinchi bo'limga 1889-yilda Kanzas universitetida asos solingan.

Sotsiologiya 1892-yilda Albion Smoll Chikago universitetiga o'tdi va u yerda yangi sotsiologiya bo'limini etdi. Chikago bo'limi umuman Amerika sotsiologiyasida va qisman sotsiologik nazariya doirasidagi birinchi muhim markaz bo'lgan¹. J.Ritser - ilk amerikalik sotsiologlarni ilk yevropa nazariyotchilarining ko'pchiligi haqida aytish mumkin bo'lgan konservator emas, balki siyosiy liberallar sifatida ta'riflash o'rinlidir, deb ta'kidlaydi.

Ilk Amerika sotsiologiyasiga xos liberalizm asosan ikkita elementdan tashkil topgan. Birinchidan, u ozodlikka ishonch va shaxs farovonligiga tayangan. Bu ma'noda unga guruhiy jamoalarga urg'u bergan Kontdan ko'ra, Spenserning qarashlari ko'proq ta'sir ko'rsatgan. Ikkinchidan, bu yo'nalishda birlashgan ko'pgina sotsiologlar jamiyatdagi progressga evolyutsion qarashni o'zlashtirdilar.

Amerikadagi ilk sotsiologik nazariya ekspluatatsiya, ichki va xalqaro imperializm hamda sotsial tengsizlikni oqlashga yordam bergan. Oxir-oqibat, ilk sotsiologlarning siyosiy liberalizmi haddan tashqari konservativ oqibatlarga olib kelgan².

XX asr boshida empirik sotsiologiyaning vujudga kelishi O. Kont tomonidan e'lon qilingan, lekin mantiqiy yakuniga yetkazilmagan pozitivistik sotsiologiya tamoyillarini o'zgartirishga intilish bilan bog'liq edi. Bundan oldin ham Yevropada ma'lum darajada tadqiqotlar o'tkazilgan bo'lsada, XVIII-XIX asrlarda ularni tayyorlash va o'tkazish uslubiyati yaxshi ishlab

¹ George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Me Graw-Hill 2010. — P. 189.

² Jiyannuratova G.Sh. "Sotsiologiya tarixi"- 20. Toshkent-2020.

chiqilmagan edi. Amaliy sotsiologiya aniq dasturlar va tavsiyalarni, ijtimoiy texnologiyalarni ishlab chiqadi. Aslini olganda, amaliy tadqiqotlar - aniq buyurtmachi sifatida ish yuritadigan hamda sotsiolog o'tkazgan ish uchun bevosita pul to'laydigan odamlar uchun mo'ljallangan tadqiqotlardir deydi G.Zborovskiy³.

Aynan AQShdagi universitet tadqiqotlaridan empirik sotsiologiya shakllana boshladi. Buni asoslash uchun bir necha sabablarni keltirib o'tish mumkin. Bular:

- shiddatli sanoatlashuv;
- ommaviy immigratsiya;
- judal urbanizatsiya;
- sotsial differentsiatsiya.

Sotsiologiyada Chikago maktabi ham alohida o'rin egallaydi. Uning asoschisi A. Smolldir (1854-1926). Albion Smollning asosiy e'tibori manfaatlar nazariyasiga qaratilib, farovonlik, muloqot qilish, go'zallik, adolatga qaratilgan yo'nalish bilan bog'liq edi. U fizikada atom qanday rol o'ynasa manfaat ham sotsiologiyada shunday rol o'ynashi kerak degan fikrni olg'a suradi. Sotsial hodisalar uch omilning o'zaro ta'siri natijasidir: tabiat, individlar va sotsial institutlar. U ilmiy tadqiqotni to'rt bosqichga bo'ldi: qayd etish, analitik, baholash va konstruktiv. Sotsiologiya jamiyatni «amalda yaxshilashga» xizmat qilishi kerakligini bildiradi. Keyinchalik manfaatga xulqni tartibga soluvchi, sotsial jarayonni baholavchi omil sifatida qaraydi.

Chikago maktabining asosiy tamoyillarini 4 turga bo'lish mumkin. Bular:

Individualizm va erkin bozor – shaxsiy erkinlik va erkin bozor resurslarini samarali taqsimlashga:

Ratsional tanlov nazariyasi – shaxslararo manfaatlarini maksimallashtirish maqsadida ratsional hisob-kitoblarga;

Cheklangan hukumat aralashuvi – iqtisodiyotda hukumatning cheklangan aralashuvini qo'llab-quvvatlashga;

Mulkiy huquqlarga urg'u berish – shaxslarga investitsiya kiritish va yangilik yaratish uchun rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Sanoatlashuv, urbanizatsiya, kriminologiya va immigratsiya yuzasidan olib borilgan ishlar yuzasidan maktab ancha katta yutuqlarga erishganiga qaramay, ushbu maktab ham ko'plab tanqidlarga va oxir-oqibat inqirozga



³ Зборовский Г.Е. История социологии; современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд. испр. и доп. - Сургут [и др.]: РИО СурГПУ, 2015. - С. 24

yuz tuta boshladi. Chikago maktabining inqirozga yuz tutish sabablari quyidagilardan iborat edi: 1930-yilda sharqiy sotsiologiya maktabiga asos solindi; 1935-yilda Amerika sotsiologlar assotsiatsiyasiga rahbar saylandi va bu rahbar Chikago maktabi vakili emas edi; yangi “Amerika sotsiologik sharhi” jurnaliga asos solindi; “Pechak ligasi” – AQShning shimoli-g’arbiy 8 ta qadimgi universitet va kollejlari uyushmasi tuzildi va ravnaqi kuchayib ketdi.



Xulosa. Sotsiologiyaning Chikago maktabi vakillari, umuman, sohaning nazariy va amaliy masalalari, sotsial muammolariga katta e’tibor berdilar. Chikago o’ziga xos «sotsial laboratoriya» markazi rolini o’ynadi. Bu yerda qishloq jamoasi va emigrantlar, ularning shahar muhitiga moslashishi, xulqning buzilishi, oilalardagi muammolar, yoshlikdagi jinoyatchilik, darbadarlik kabi masalalarda keng tadqiqotlar olib bordilar. Chikago universiteti bu sotsial laboratoriyada katta rol o’ynadi⁴.

Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr birinchi yarmida sotsiologiyaga jamiyat haqidagi maxsus fan sifatida qarashning to’la asosi yaratildi. Jamiyatga o’ziga xos yondashishning tashkil etuvchi nazariya konsepsiyasi va metodologik tamoyillari rivojlandi. Chikago kriminologiya maktabi shahar sotsiologiyasi va shaharlardagi jinoyatchiliklarga juda katta e’tibor qaratgan.

Bundan tashqari, maktabi ijtimoiy tashkilotlanish nazariyasiga urg’u berib, mahalla xususiyatlarining jinoyat darajalari va yomon xulq-atvor ustidagi ta’sirini ko’rsatdi. Chikago maktabi olimlari voyaga yetmaganlarning yomon xulq-atvori va shahar jinoyatchiligi bo’yicha yorqin tadqiqotlar o’tkazib, zamonaviy kriminologiyani shakllantirdi.

REFERENCES

1. George Ritzer. Sociological Theory. Eighth Edition. Me Graw-Hill 2010. — P.
2. Jiyanmuratova G.Sh. “Sotsiologiya tarixi” 464 bet. Toshkent-2020.
3. Зборовский Г.Е. История социологии; современный этап: учеб. для вузов. 2-е изд. испр. и доп. - Сургут [и др.]: РИО СурГПУ, 2015.
4. Normurodov B, Normurodova G. Sotsiologiya tarixi. Toshkent-2010.
5. www.cyberleninka.ru
6. www.wikipedia.ru

⁴ Normurodov B, Normurodova G. Sotsiologiya tarixi. Toshkent-2010. 19-20

7. www.oefan.uz
8. www.e-library.namdu